



## USTOZ- SHOGIRD AN'ANALARINI KELAJAK YOSHLARIGA KENG MIQYOSDA TADBIQ ETISH!

**Toshtemirova Umida Qobil qizi**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
Sport va chaqiriqqacha harbiy ta'lim fakulteti Texnologik  
ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi  
e-mail: [toshtemirovau5@gmail.com](mailto:toshtemirovau5@gmail.com)  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7869889>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-april 2023 yil  
Ma'qullandi: 24-april 2023 yil  
Nashr qilindi: 27-april 2023 yil

### KEY WORDS

*Barkamol avlod, yosh mutaxassislar, renessans, sobiq ittifoq, islohotlar, an'analar, kadrlar.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolaning mazmuni shundan iboratki, doimo ustoz-shogird an'analari muvafaqqiyatli yakun topishini, uni keyinchalik ham yanada takomillashtirishni o'z ichiga oladi. Bu an'analarni kelajak yoshlariga ham keng miqyosda yetkazib berish yoritilgan.*

Ma'lumki, oliy o'quv yurtlarida bo'lg'usi mutaxassis o'qituvchilarga tarbiyaviy ta'sir qiluvchi ustoz-shogird an'analari tajribasi amaliy tasdiqlangan omil sifatida ifodalanadi. Tez sur'atda ilmiy-texnik rivojlanish jarayonini amalga oshirilib borishi natijasida ta'lim jarayonining qirralari mukammallashib borayotganligi, ularning tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni, innovatsion uslublarni keng doirada kirib kelishi kabi hollar bo'lg'usi mutaxassislarni kasbiy taalluqliligi masalalarni aniqlash, ularga o'z vaqtida yordam berish kabi masalalarga e'tibor qaratish, ustoz-shogirdlik an'alaridan o'rinli foydalanish zarurligini keltirib chiqarmoqda. Uning asosida har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalab yetkazish masalalari o'z ifodasini topdi.

Bugungi kunda yosh mutaxassislarni har tomonlama shakllantirishga e'tibor har qachongacha nisbatan tezlashtirish ehtiyoji zamon talabiga aylandi, ularni kasbiy faoliyatini oshirishga qaratildi. Tarixiy sharoitlarining o'zgarishi borasida to'plangan tajribalarni yoshlar ongiga yetkazish shakllari ham o'zgarib bormoqda. Mustaqillik sharofati tufayli ustoz-shogird an'analarni yana-da rivojlantirishning asosiy vazifalardan biri mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishga asos bo'ladigan yangi ta'lim tizimining tashkil etilishidir. 1997-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida qabul qilingan "Ta'lim to'g' risida"gi Qonun va Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi uni amalga oshirish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Xalqimiz uchun Ustozning izzat va hurmati doimo yuqori bo'lgan va ustozga nisbatan hamisha ehtirom ko'rsatilgan. Zero, har bir shaxsning kamol topishi, erishgan yutuqlari zamirida Ustozlarning mashaqqatli mehnati yotadi. Tarixdan bizga ma'lumki, Rennanslarga asos solgan buyuk ajdodlarimizning erishgan yutuqlari zamirida iqtidorli ustozlarining hissasi

katta bo'lgan. Xalqimizda "Ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar" degan naql bekorga aytilmagan.

"Ustoz-shogird" an'analari ham asrlar davomida shakllanib kelgan milliy qadriyatlarimizga aylangan. Ustozning baxti – o'zining ilmli, vatan ravnaqiga foydasi tegadigan shogirdlarining bor ekanligida. Agar iqtidorli ustoz o'z maktabini yaratmasa, o'zidan keyin o'zidan-da bilimli, o'zidan-da dono shogird qoldirmasa uning umri besamar o'tgan bo'ladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish g'oyasi asosida ulkan maqsadlarni oldimizga qo'yar ekanmiz, buyuk ajdodlarimizdan meros bo'lgan "Ustoz-shogird" an'analarni davom ettirishimiz, ulardek ustozlar va munosib shogirdlar bo'lishimiz muhim ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, mamlakatimiz tarixini so'ngi davrlariga nazar tashlar ekanmiz, sobiq ittifoq davrida yurtimizda barcha sohalar qatorida madaniy boyliklarimiz asosini taminlashga xizmat qiluvchi soha hisoblangan arxiv ishiga bo'lgan e'tiborsizlik oqibatida soha jamiyatda o'z o'rnini yo'qotgan edi. Shuningdek, soha

va killarining aksariyatining yoshi o'tgan kishilardan iboratligi hech kimga sir emas, shunday ekan, ustoz-shogird kabi asriy an'analarni hususida so'z yuritishning xojati ham yo'qligi barchamizga ayon. Mamlakatimiz istiqbolga erishgan dastlabki yillaridan davlat va jamiyat qurishning barcha sohalarida keng ko'lamli islohatlar amalga oshirilib, arxiv ishi sohasida ham juda katta islohatlar amalga oshirildi. Jumladan, Respublikamizda arxiv ishini takomillashtirishga qaratilgan qator qonun, qaror va me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilib faoliyatga tadbiiq etildi. Hududlarda arxiv muassasalari tashkil etildi, mavjudlariga yangi binolar qurildi, ularning moddiy texnik bazasi yangiladi. SHu bilan birga, sohada kadrlar salohiyatini oshirishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirilmoqda.

#### XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ilmiy izlanish va tadqiqotlarni olib borishda ustozning roli katta. Ustoz shogirdiga har tomonlama o'rnak bo'ladi, uni to'g'ri yo'lga boshlaydi. Ustozlarning shogirdi bo'lish ham sharaflil va ma'sulyatli burchdir.

#### References:

1. Foydalanilgan adabiyotlar:
2. Agzam Mirzayev
3. manaviyat.edu.uz
4. Xoliqulov Shuhratjon Boymahammadovich
5. <https://xs.uz/uz>